

## YO‘L-TRANSPORT HODISALARI SABABLARI VA ULARGA YECHIMLAR: YOSHLAR NIGOHIDA

Bugungi kunda yo‘l-transport hodisalari (YTH) nafaqat statistik ko‘rsatkichlar ortida qolayotgan raqamlar, balki jamiyatning kundalik hayotiga bevosita ta‘sir qilayotgan og‘ir ijtimoiy muammolardan biridir. Transport vositalarining ko‘payishi, haydovchilik madaniyatining pastligi va infratuzilma kamchiliklari YTHlarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, avtohalokatlar ayniqsa 5–29 yoshdagi yoshlar uchun o‘limning yetakchi sababi hisoblanadi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatimizda 9364 ta YTH sodir bo‘lgan, 2203 ta o‘lim va 8901 ta inson jarohat olgan. Bu ko‘rsatkich yoshlar nuqtai nazaridan yo‘l xavfsizligini o‘rganish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ushbu maqola yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) va O‘zbekiston statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovda YTHlarning asosiy sabablari, haydovchilar va piyodalarning xatti-harakatlari, infratuzilma bo‘yicha fikrlar hamda profilaktika bo‘yicha yoshlarning takliflari o‘rganildi.

So‘rovnoma **yoshlar o‘rtasida** yo‘l transport hodisalarining sabablari hamda uning oldini olish bo‘yicha jamoatchilik fikrini o‘rganish yuzasidan tuzilgan savollar asosida shakllantirildi. Tadqiqot doirasida jami 2711 nafar ayollar va 1237 nafar erkaklar ishtirok etdi. Jami **3950 nafar** respondentdan 18-20 yosh oralig‘idagilar 3117 nafarni, 21-30 yoshdagilar 833 nafarni tashkil etdi.

### Global statistik holat

- JSST ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 1,19 million kishi YTH oqibatida halok bo‘ladi.
- 20–50 million kishi turli darajadagi jarohatlar oladi.
- Yo‘l-transport hodisalari 5–29 yoshdagilar orasida o‘limning birinchi sababi bo‘lib qolmoqda.
- Bolalar va o‘smirlar YTHdan eng ko‘p jabr ko‘radigan guruhlar sirasiga kiradi (UNICEF).



Bu global holat yoshlar ongida yo‘l xavfsizligi bo‘yicha tushunchalar, xatti-harakatlar va madaniyatni o‘rganishning naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

### Yoshlar fikri: asosiy sabablar

Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan o‘tkazilgan so‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, yoshlar YTHlarning asosiy sababini inson omilida ko‘rmoqda:

Sabab	Javob berganlar soni	Foiz (%)
Tezlikni oshirish	3241	82%
Telefon ishlatish	1926	49%
Mast holda haydash	1920	49%
E‘tiborsizlik, charchoq	1746	44%
Piyodalarga e‘tiborsizlik	970	25%
Yo‘llar holatining yomonligi	863	22%
Nazorat yetishmasligi	267	7%

### YTHlarning asosiy sabablari:



## **Asosiy yo‘l-transport xavfi omillari:**

**1. Tezlikni oshirish** – yosh haydovchilarning ortiqcha ishonchi va ekstremal haydashga qiziqishi YTHga olib keladi. JSST ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi YTHlarning 30% i tezlik tufayli sodir bo‘ladi; O‘zbekistonda ham shunga yaqin natija kuzatiladi.

**2. Mashina boshqarayotganda telefondan foydalanish** – DXX ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda 58 mingdan ortiq haydovchi telefondan foydalanib boshqarish qoidabuzarligi bilan jarimaga tortilgan, bu YTHlarning 12–15% iga sabab bo‘lgan.

**3. Haydovchilarning tajribasizligi** – yangi haydovchilar global miqyosda 3 baravar ko‘proq YTHga uchraydi; O‘zbekistonda tajribasi 1 yildan kam bo‘lgan haydovchilar ishtirokidagi YTHlar yiliga 1500 dan ortiqni tashkil qiladi.

**4. Piyodalar xatti-harakatlari** – belgilanmagan joydan o‘tish, quloqda naushnik bilan yo‘l kesib o‘tish, svetofozni e’tiborsiz qoldirish. 2024 yilda O‘zbekistonda sodir bo‘lgan barcha YTHlarning 42% i piyodalar bilan bog‘liq bo‘lgan.

**5. Infratuzilma muammolari** – yoritilmagan yo‘llar, svetofozlar yetishmasligi, yo‘l belgilarining yaroqsizligi. Shu sabablar mamlakat bo‘yicha YTHlarning 20% iga to‘g‘ri keladi.

## **Ko‘rilayotgan choralar samaradorligi**

YTHlarni kamaytirish maqsadida joriy etilgan jarimalar va nazorat choralarining samaradorligi yoshlar nuqtai nazarida ham muhim masala hisoblanadi. So‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning katta qismi joriy choralarni samarali yoki qisman samarali deb hisoblaydi, bu esa tizim ma’lum darajada profilaktik ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kichik bir qismi choralarni samarasiz deb baholagan va javob berishga qiynalganlar ham mavjud, bu esa jamiyatda bu masala bo‘yicha yetarlicha ma’lumot yoki shaxsiy tajriba yetishmasligidan dalolat beradi.

E’tiborga olinishi lozimki, ko‘pchilik haydovchilar jarimalar miqdorini juda yuqori deb hisoblaydi. Aslida, belgilangan jarimalar **davlat byudjetini boyitish maqsadida** emas, balki haydovchilarni qoidabuzarliklarni kamroq sodir etishga undash va takroriy qoidabuzarliklardan himoya qilish uchun mo‘ljallangan.

## **Yoshlar taklif qilgan yechimlar**

Respondentlar YTHlarni kamaytirish uchun quyidagi choralarni muhim deb biladi:

- 1. O‘quv markazlarida amaliy mashg‘ulotlar sonini ko‘paytirish – yoshlar real vaziyatlarga tayyor bo‘lishni xohlaydi.*
- 2. Maktab va universitetlarda yo‘l xavfsizligi darslarini joriy etish – 8–9-sinflarda qisqa ma’ruzalar yetarli emas.*
- 3. Yoritilmagan hududlarni modernizatsiya qilish – tungi yoritish sifati kam bo‘lgan ko‘chalar xavf tug‘diradi.*
- 4. Tezlikni aniqlovchi kameralar sonini oshirish – ma’muriy nazorat kuchaysa, intizom oshadi.*
- 5. Mashina boshqarayotganda telefondan foydalanishni aniqlovchi texnologiyalar – yoshlar o‘zlari ham telefondan foydalanish YTHga sabab bo‘lishini tan oladi.*
- 6. Blogerlar, aktyorlar va mashhur shaxslar ishtirokida targ‘ibot – qisqa roliklar, ijtimoiy reklama va chuqur ta’sirli chiqishlar profilaktika samaradorligini oshiradi.*
- 7. Oila va jamiyatning roli – ota-onaning muloqoti, farzandga transport madaniyati bo‘yicha yo‘riq berishi, jamiyatning mas’uliyati YTHni kamaytirishda muhim.*

Yoshlar fikriga ko‘ra, ota-onalarning o‘zaro muloqoti, transport madaniyatiga beparvoligi, farzandiga haydovchilikka oid masalalarda to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq bermasligi YTHlarning oldini olishni qiyinlashtiradi.

Shu bois profilaktika faqat haydovchiga qaratilmasligi, balki oila – maktab – jamiyat tizimi birgalikda ishlashi lozim.

Eng muhim xulosa shuki, yo‘l-transport hodisalarining ildizi faqat texnikada emas — inson omilida, madaniyatda va mas’uliyatda. YTHlarni kamaytirish uchun ta’lim, nazorat va infratuzilma birgalikda ishlashi zarur. Shu bilan birga, global va O‘zbekiston statistikasi ham yoshlar fikri bilan uyg‘un keladi: asosiy xavf inson omili va tezlik, telefon, tajribasizlik kabi omillar bilan bog‘liq.